


YASHIL

№10

Iqtisodiyot va taraqqiyot

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, ilmiy-ommabop jurnal

2
0
2
4



7491



ISSN: 2992-8982

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 548 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 1-oktabrdan ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayeich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, «Nobel» mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro «Nordik» universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) «El-yurt umidi» jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., «LUKOIL-Energoservis» Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

- Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
- Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
- Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,
- Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society
- Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
- Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
- Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan
- Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations
- Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation
- Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute
- Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology
- Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE
- Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE
- Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE
- Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia
- Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International «Nordic» University
- Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE
- Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE
- Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan
- Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan
- Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE
- Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute
- Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia
- Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the «El-yurt umidi» fund
- Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction
- Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA
- Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA
- Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey
- Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.
- Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE
- Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey
- Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE



Ekspertlar kengashi:

- Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Jurnalning ilmiyligi:

««Yashil» iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

MUASSIS: «Ma'rifat-print-media» MChJ

HAMKORLARIMIZ: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



МУНДАРИЖА

Инвестиции в образование – путь к устойчивому развитию.....	11
Синдаров Шерзод Эгамбердиевич, Розиматов Санжарбек Косимжон угли	
Rentabellik – biznes modelining iqtisodiy samaradorligining o‘lchovi sifatida.....	14
Normo‘minov Temurbek Sheraliyevich	
“Hududgazta’minot» AJda amalga oshirilgan loyihalar samarasi.....	19
Ergashev Muhibbek Aslam o‘g‘li	
Sug‘urta kompaniyalarida sug‘urta zaxiralari hisobini takomillashtirish.....	25
Najimova N.	
AQSH va xitoy tashqi savdosining rivojlanish tendensiyalari va miliy iqtisodiyotimizga ta’siri.....	29
Rahimboyeva Begoyim Doniyor qizi	
Baliqchilik xarajatlari va olingan mahsulotlar hisobini tashkil etishni takomillashtirish.....	36
Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich	
O‘zbekistonda banklar faoliyatida raqamlashtirish loyihalarini tatbiq etishni qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshirish.....	43
Maxsadaliyeva Maftuna Tohir qizi	
Tijorat banklarida muammoli kredit (npl) qarzdorliklarini undirish jarayonlarini takomillashtirish istiqbollari.....	50
Ko‘makov Shavkat Norboevich	
Xodimlarga munosib mehnat sharoitlari yaratishning iqtisodiy samarasi.....	57
Tuychiyev Dusmurod Tuychiyevich.	
Korxonalarining innovasion faoliyatini boshqarish vositalarini shakllantirishning zaruriy shartlari.....	63
Akramboyev Azizbek Rustamjon ug‘li	
Mamlakatimizda turizm sohasida oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashni boshqarish xususiyatlari.....	69
Ochilov Akram Odilovich, Xamidova Mo‘tabarxon Abdumalik qizi	
Sug‘urtada investitsiya muhitini tashkil etish.....	76
O‘tashev Jahongir Burxonovich	
Forms and models of familyeconomy.....	82
Fayziyeva Mashhura Qosimovna	
Oliy ta’lim muassasalarida kreativ yondashuv strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	88
Rahimova Kutlibeka Ergashevna	



Построение интегрированной системы управления затратами предприятий.....	95
Алиева С.С.	
Роль средств массовой информации и коммуникации в развитии образования механизmlari.....	100
Алиакбарова Рушанабону Муродуллаевна	
Концептуальные основы повышения эффективности производства в национальной экономике республики узбекистан.....	106
Рахматова Наргиза Агзамовна, Нурмухаммадов Лазизбек	
Ijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalarini rivojlantirish yo'llari.....	116
Sodiqov Baxtiyor To'raqulovich	
Temir yo'l tarmog'ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi.....	125
Nasimov Shavkat Vasievich	
Tijorat banklarining kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo'llari.....	132
Jalilov Baxodir Amiralievich	
Ekoturizmni rivojlantirishda ekologiyani muhofaza qilish: barqaror kelajak sari yo'l.....	138
Tirkacheva Farangiz Sur'at qizi	
O'zbekistonda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishda xorij tajribasi.....	145
Salomov Temurbek Boburmirzo o'g'li	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishsizlik va inflyatsiya darajasini pasaytirish muammolari.....	152
Kamil Sharipov	
Sanoat korxonalarida mehnat sifati va samaradorligini oshirishda inson resurslarini boshqarish.....	159
Ergashev R.X., Ochilov A.O., Turaqulov O.O.	
Banklar likvidligi va kapitallashuv darajasining bank kredit kanali samaradorligiga ta'siri.....	164
Absalamov Akram Tolliboyevich	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyasi.....	173
Davronov Jahongir Ma'sud O'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	178
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich	
JAMOAT TRANSPORTI XIZMATLARINING RIVOJLANISHIDA OLIMLARNING QARASHLARI.....	183
G'iyosidinov Boburbek Baxtiyor o'g'li	
Eco-marketing approaches for promoting green building materials through digital storytelling platforms.....	190
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyyot.uz	



Koziyev Jalaluddin Alisher o'g'li Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari.....	197
Hamrokulov M.O.	
Роль инноваций в развитии электронной коммерции и цифровой экономики.....	207
Умарходжаева Зайнабхон Нодирхон кизи	
Концептуальные основы повышения эффективности производства в национальной экономике республике узбекистан.....	211
Рахматова Наргиза Агзамовна, Нурмухаммадов Лазизбек	
Tijorat banklari tomonidan uy-joylar qurilishini moliyalashtirishda qo'llaniladigan usullar.....	221
Ziyayev Azamat Mirza o'g'li	
O'zbekiston respublikasida auditorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.....	229
Abdullaev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	
Kosmik monitoring natijalari orqali raqamli qishloq xo'jaligini boshqarishning zamonaviy jihatlari.....	239
Kamoliddin Madrahimov Ro'zimbayevich	
Yengil sanoat korxonalarida eksport va import operatsiyalari hisobini takomillashtirish.....	247
Rasulova Zilola Abdig'opparovna	
O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida talabalarga stipendiya va professor-o'qituvchilarga ish haqi to'lashning moliyaviy menejmentga ta'siri.....	256
M.M.Tashxodjaev.	
« Понятие «туристский потенциал региона» : его характеристика и роль в социально-экономическом развитии дестинаций»	264
Очилов Акрам Одилович, Усманова Азиза Баходировна, Туракулов Ойбек Одил оглы	
Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash.....	272
Muxamedjanova Gulzoda Odilovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon.....	278
To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich	
Yaponiya iqtisodiyotining jadal rivojlanishi sabablari.....	287
Artikova Shoxida Ilyasovna	
Soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash mezonlari.....	292
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli.....	298
Mamurjon Abdivoxidov Avazxon o'g'li	
O'zbekistonda raqamli iqtisodning shakllanishida aholi turmush aravonligining yaxshilanishi va bandligining ta'minlanishi.....	307
Djurayeva Ruxsora Nematilloevna	



Investitsiya jozibadorligini oshirish yo‘llari.....	314
Olimbekov Odilbek Saidmurodovich	
Temir yo‘l tarmog‘ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi.....	321
Nasimov Shavkat Vasievich	
Oliy ta‘limni moliyalashtirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	329
Yo‘ldoshev Jahongir To‘rboevich	
Iqtisodiyot va ekologiya muvozanati: barqaror taraqqiyotga yondashuv.....	336
Turdiyeva Iroda Ismoil qizi	
Kosmik monitoring natijalari orqali raqamli qishloq xo‘jaligini boshqarishning zamonaviy jihatlari.....	341
Kamoliddin Madrahimov Ro‘zimbayevich	
Zamonaviy sharoitda biznesning pr faoliyati maqsadi.....	349
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarning qimmatli qog‘ozlar bozorida faoliyati istiqbollari.....	354
Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich	
Tijorat banklarining kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo‘llari.....	359
Jalilov Baxodir Amiralievich	
Инвестиции и их место в экономическом развитии страны.....	365
Махамаджанов Мухаммадали Музаффарович	
Global o‘zgarishlar sharoitida raqamlashtirishning bank tizimiga ta’siri: muammo va yechimlar.....	371
Kutliyev Dilshod Orifovich	
Mintaqada mehmonxona xo‘jaligida investitsiya samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar.....	380
Jasur Berdiyev	
Mintaqa transport-logistika xizmatlari samaradorligini oshirish mexanizmlari va ularni takomillashtirish.....	385
Nargiza Eshqobilova	
Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash tizimi.....	390
samaradorligini baholash usuli	
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Bank moliyaviy aktivlari - iqtisodiyotning tomiri sifatida.....	397
Mamarajabov Bobur Abduxakimovich	
Integration of trade marketing and e-commerce: how to combine online and offline sales channels.....	401
Mamatkulova Shoirja Jalolovna	
Audit tekshiruvini rejalashtirishda ilg‘or xorij tajribasi qo‘llash imkoniyatlari.....	406
Akromov Shohrux Shuhrat o‘g‘li	



O'zbekiston yashil Iqtisodiyotining o'rni va uni rivojlantirish, shuningdek, yashil energetika.....	417
Sultonov Sirojiddin Normurolovich	
Biznes faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi moliyalashtirish manbalari.....	425
Adilov Sherzot Shamilevich	
Soliq qonunchiligini raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish.....	431
Imomova Muhabbat Volnazarovna	
Turizm sohasida madaniy meros obyektlaridan foydalanishning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari.....	439
Raupov G'ayrat Soyibovich	
“Raqamli tafovut” (digital divide) yondashuvi asosida destinatsiya jozibadorligini baholashning “raqamli tafovut indeksi” metodikasi.....	446
S.R. Bobokalonov	
O'zbekistonda issiqlik energetikasini barqaror rivojlantirishda energetik tekshiruvlarni amalga oshirish strategik yo'nalishlarini takomillashtirish.....	456
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li	
Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishda “klaster” modelidan foydalanish samaradorligi.....	467
Ubaydullayev Bekmurod Muborakovich	
Зарубежный опыт повышения качества жилищно-коммунальных.....	474
услуг и его применение в узбекистане	
Икромжон Йигиталиев	
Sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyaning ilmiy-nazariy jihatlari.....	481
Xusanova Malohat Mengnoronovna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish xususiyatlari.....	489
Abdulxakimov Sirojiddin Nurboy o'g'li	
Ijtimoiy turizm subyektlarini identifikatsiyalashning ayrim jihatlari.....	498
Rasulov Sherzod Ashirovich	
Tijorat banklari tomonidan loyihalarni moliyalashtirishning intensivligini oshirish.....	505
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
Soliq tizimi modernizatsiyasining kontseptual asoslarini takomillashtirish.....	511
Nomazov Baxrom Bobomuradovich	
Yashil iqtisodiyotni ta'minlashda oziq-ovqat xavfsizligining nazariy asoslari va uni baholashga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar tahlili.....	518
Samiyeva G.T.	
Korxonalarda innovatsion-investitsion faoliyatni tashkil etishning dunyo tajribasi.....	527
Taraxtiyeva Gulmira Kulbayevna	
Kichik biznes muhiti va uning o'zgarishi omillari.....	535
Xasanboeva Naima Xasanboevna, Rashidov Rahmatullo A'lojonovich	



Совершенствование нормирования оборотных средств предприятий сферы услуг.....
Сайфиддинов Илхом Файзиддинович

IQTISODIYOT EKONOMIKA ECONOMY



SOLIQ TIZIMI MODERNIZATSIYASINING KONTSEPTUAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

ORCID: 0009-0002-7964-9162



Nomazov Baxrom Bobomuradovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada soliq tizimini modernizatsiyalashning kontseptual asoslari yoritilgan. Soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar fikrlari o'rganilgan. Soliqqa oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida soliq organlari tomonidan elektron xizmatlarni tashkil etish holati va istiqbollari o'rganilgan. Shuningdek, soliq tizimini modernizatsiyalash bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq, modernizatsiya, tizim, raqamlashtirish, soliq siyosati, elektron, texnologiya, to'lov.

Abstract: The article describes the conceptual basis of the modernization of the tax system. Opinions of foreign and local scientists on improving the tax system were studied. Tax regulatory documents are analyzed. The status and prospects of the organization of electronic services by tax authorities in the Republic of Uzbekistan have been studied. Conclusions and suggestions on modernization of the tax system were also developed.

Key words: tax, modernization, system, digitization, tax policy, electronic, technology, payment.

Аннотация: В статье описаны концептуальные основы модернизации налоговой системы. Изучены мнения зарубежных и отечественных ученых по поводу совершенствования налоговой системы. Анализируются налоговые нормативные документы. Изучено состояние и перспективы организации электронных услуг налоговыми органами в Республике Узбекистан. Также были разработаны выводы и предложения по модернизации налоговой системы.

Ключевые слова: налог, модернизация, система, цифровизация, налоговая политика, электроника, технология, оплата.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq tizimi davlatning iqtisodiyotni boshqarish vositalaridan biri hisoblanadi. Soliq tizimining samaradorligi mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, soliq tizimini modernizatsiya qilish va uning kontseptual asoslarini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda. Bu jarayon iqtisodiyotning raqamli rivojlanishi, xalqaro hamkorlikning kengayishi va davlat moliyasining samarali boshqarilishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



Soliq tizimini modernizatsiya qilish — bu soliq ma'murchiligining samaradorligini, majburiyatlarga rioya qilishni va tenglikni oshirishga qaratilgan muhim sa'y-harakatlardir. Bu jarayon texnologik rivojlanish va jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlari bilan ta'sirlangan iqtisodiy sharoitda ayniqsa dolzarb bo'lib, soliqlarga tortishni isloh qilishning keng qamrovli yondashuvi soliq tuzilmalarini soddalashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash va kuchli boshqaruv tizimlarini yaratishni o'z ichiga olishi kerak.

“O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida”gi farmonga asosan, soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim sharti ekanligi ta'kidlanadi.

Soliq tizimini modernizatsiya qilishning asosiy jihatlaridan biri — bu soliq tuzilmalarini soddalashtirish. Soddalashtirilgan soliq tizimlari soliqlarga rioya qilishni osonlashtiradi va soliq yig'ish jarayonlarining samaradorligini oshiradi. Soliq tizimini modernizatsiya qilish dolzarbligi shundaki, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi soliq qonunchiligiga rioya qilishning yaxshilanishi, daromadlarni ko'paytirish va soliq idoralariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliq tizimini modernizatsiyalash va takomillashtirish masalalari mamlakatimizning E.F. Gadoyev, Sh. To'rayev, O.T. Yuldashev, Z.N. Qurbanov, B.R. Sanaqulova, K.R. Hotamov va N.B. Ashurova kabi iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Tadqiqotchi U.X. Normurzayevning fikricha, “Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy siyosatning eng muhim elementlaridan biri – soliq siyosatini yanada liberallashtirish, soliqlarga tortish tartibini soddalashtirish, soliq yukini pasaytirish, xo'jalik sub'ektlarining huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning faoliyatlariga aralashishga chek qo'yish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi” [9, 12-b].

Indoneziyalik tadqiqotchi Taufik Kurniawan ta'kidlashicha, soddalashtirilgan soliq tuzilmasi soliq to'lovchilarning majburiyatlariga rioya qilishni rag'batlantiradi va ma'muriy jarayonlarni yengillashtirib, soliq yig'ish samaradorligini oshiradi [10, 2-b].

Shelvira va Mortigor Afrizal Purbalar, soliq tizimining shaffof bo'lishi va soliq to'lovchilar bilan ma'muriyat o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni kamaytirish zarurligini ta'kidlab, bu korrupsiya darajasini pasaytirishga va soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qilishga yordam beradi [11, 1341-b]. Liu tomonidan keltirilgan xulosalar ham shuni ko'rsatadiki, soliq siyosatidagi murakkabliklar samarali daromad yig'imini qiyinlashtirishi mumkin va soliqlarga oid qoidalarni aniqroq va tushunarliroq qilish zarur [12, 4-b].

Oliver Vendell Xolmsga ko'ra, davlatning soliq ma'muriyati hukumat xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan daromadlarni yig'ishda muhim rol o'ynaydi. Hech bir davlat soliqlarsiz yashay olmaydi. Bugungi dunyoda soliqlar faqat daromad yig'ish bilan cheklanmaydi, balki jamiyat va davlat o'rtasidagi “fiskal shartnoma”ni, ya'ni “tsivilizatsiya uchun to'lov”ni anglatadi [13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz tadqiqotlarimizni olib borish jarayonida kuzatish, jamlash va guruhlash, taqqoslash, analiz va sintez metodlaridan keng foydalandik. Xorij va mamlakatimizning yetakchi olimlari tadqiqotlari va adabiyotlari tahlilini o'tkazdik. Soliq tizimiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qildik. Shuningdek, tadqiqotlarimiz natijadorligini ta'minlash maqsadida soha vakillaridan so'rovnomalarni oldik.

TAHLIL VA NATIJALAR


Soliq tizimi modernizatsiyasi bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar, birinchi navbatda, raqamlashtirish, soliq stavkalarini optimallashtirish va shaffoflikni oshirish kabi asosiy jihatlarni

qamrab oladi. Soliq tizimining raqamlashtirilishi orqali soliq to'lovchilar va davlat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni soddalashtirish va shaffofligini ta'minlash imkoniyatlari kengaydi. Shu jumladan, soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarning faoliyati va daromadlari haqida to'liq va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish, soliq qonunbuzarliklari va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga katta hissa qo'shadi.

Odamlarning soliqlarni to'lashga bo'lgan tayyorligi ularning o'zlarini davlat fuqarosi sifatida his qilishlari bilan uzviy bog'liq. Ushbu ichki tayyorlik, ya'ni soliq madaniyati, davlatga bo'lgan ishonch, xususan, soliq ma'murchiligining halolligiga bo'lgan ishonch bilan mustahkamlanadi. Shu sababli, korrupsiyasiz soliq ma'murchiligi yaxshi boshqaruvni ta'minlashning asosi bo'lib, kuchli fiskal shartnoma shakllanishiga zamin yaratadi va aholining soliqlarni o'z ixtiyori bilan to'lashga qanchalik tayyorligini belgilaydi [14, 298-b].

Soliq tizimidagi raqamlashtirish tajribasi Singapur, Estoniya, Gruziya kabi mamlakatlarda katta muvaffaqiyatlarga olib keldi. Bu mamlakatlarda soliq to'lovchilar uchun jarayonlar soddalashti, xizmat ko'rsatish darajasi oshdi va davlat daromadlari ko'paydi. Shu bilan birga, soliq stavkalarini optimallashtirish va soliq kodeksini takomillashtirish ham ijobiy natijalar keltirib chiqardi. Ushbu usullar yordamida soliq yig'implarining samaradorligi oshirilib, tadbirkorlik subyektlari uchun barqaror soliq muhitini yaratish imkoniyati tug'ildi.

Tadqiqotlarimiz natijalaridan kelib chiqib, soliq tizimining kontseptual asoslariga quyidagicha ta'rif berdik: "Soliq tizimining kontseptual asoslari – bu tizimni rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida asosiy tamoyillar, yondashuvlar va maqsadlarni belgilab beruvchi g'oyalar majmuasidir." Bu asoslar mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitlariga qarab shakllanadi. Quyidagi rasmda soliq tizimining kontseptual asoslari batafsil yoritilgan (1-rasm).



1-rasm. Soliq tizimining kontseptual asoslari.

Bizningcha, soliq tizimi mamlakat iqtisodiyotining samarali ishlashini ta'minlashi kerak. Bu degani, soliq siyosati ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning rivojlanishiga to'sqinlik qilmasligi,



balki ularni rag'batlantirishi lozim. Soliqlarni haddan tashqari yuqori qo'yish iqtisodiy faollikni pasaytirishi mumkin, shuning uchun soliq stavkalarini optimallashtirish muhim. Shu bilan bir qatorda, soliq tizimi ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu, odatda, progressiv soliq stavkalari orqali amalga oshiriladi; ya'ni ko'proq daromad oluvchilar ko'proq soliq to'laydi (1-jadval).

1-jadval

Davlat soliq xizmati organlarining elektron xizmatlari ro'yxati [17].

Xizmat nomi		Xizmat nomi	
T/r	Interaktiv xizmatlar	T/r	Axborot xizmatlar
1	Soliqlarni to'lash	1	Sizning soliq xizmatingiz
2	Shaxsiy kabinet orqali elektron o'zaro munosabatlar	2	Soliq nizolari to'g'risida
3	Yuridik shaxslarning hisobotlarini yuborish	3	Ko'p uchraydigan savollar
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlarni hisobotlarini yuborish	4	Soliq organlarining rasmiy tushuntirishlari
5	Soliq deklaratsiyalarini yuborish	5	Jismoniy shaxslarning soliq bo'yicha maslahatchi
6	Ortiqcha to'langan soliq summalarini qaytarish yoki boshqa soliq turiga o'tkazish	6	Soliqlarni hisoblash kalkulyatorlari
7	Rezidentlik sertifikatini	7	Soliqlar kalkulyatorlari
8	Nazorat-kassa mashinalarini ro'yxatdan o'tkazish	8	Soliq imtiyozlari
9	Murojaatlarni yuborish	9	O'z biznesingni yarating
10	Qabulga yozilish	10	STIR yoki JSHSHIRingizni aniqlangan
11	Xodimlarni mol-mulk solig'ini to'lash	11	Soliq tekshiruvi natijalari
12	Elektron hisob-fakturalar	12	Soliq to'lovchilar haqidagi ma'lumotlar
13	Ijara shartnomalarni hisobga qo'yish	13	QQS to'lovchilar
14	Nafaqaxo'zni ishga olish va bo'shatish	14	Kontragent haqida ma'lumot
15	Yollangan xodimlarni ro'yxatda o'tkazish	15	Soliq majburiyatini bajarilishi masalalari
16	Onlayn NKM va virtual kassa ma'lumotlari	16	Jismoniy shaxslarni solqqa tortiladigan obyektlari
17	Rezyume yuborish	17	Hisobga qo'yish ma'lumotlari
18	QQSning o'zni qoplash lozim bo'lgan summasini qaytarish	18	Byudjet bilan hisob-kitoblar
19	Tadbirkorga ko'mak berish bo'yicha so'rovnomalar	19	Soliq qarzi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma
20	Soliq imtiyozlaridan foydalanish bo'yicha murojaat	20	Soliq va to'lovlar bo'yicha qarzdorlar
21	Elektron raqamli imzo kalitlarini ro'yxatga olish	21	Bankrot korxonalar
		22	Auditorlik tekshiruvida o'tgan korxonalar
		23	Murojaatlarni ko'rib chiqish holati
		24	Soliq to'lovchining taqvimi
		25	Fuqarolarning hisoblangan sug'urta badallari



Soliq tizimi davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni oshirish uchun shaffof bo'lishi lozim. Soliq yig'implarining qanday ishlatilayotgani haqida aholiga aniq va ochiq ma'lumotlar berilishi kerak. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [15] farmon talablaridan kelib chiqib, keng omma uchun tahliliy, ilmiy tadqiqot ishlariga ko'maklashuvchi va jamoatchilik nazoratini ta'minlovchi shaffof hamda ishonchli ma'lumotlarni taqdim etib kelmoqda. 2023 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan qo'mita va inspeksiyalararo o'tkazilgan ochiqlik indeksida 82,6 (+12,1) [16] qiymat bilan Soliq qo'mitasi respublikada ikkinchi o'rinni egalladi.

Shuningdek, zamonaviy soliq tizimlari raqamlashtirish va avtomatlashtirish tamoyillariga asoslanishi kerak. Raqamli tizimlar soliqlarni to'plash, kuzatish va hisobotlarni tezroq va aniqroq yuritishni ta'minlaydi, shuningdek, soliq intizomini mustahkamlaydi. Hozirgi kunga kelib, davlat soliq xizmati organlarining elektron xizmatlari soni keskin oshgan Soliq tizimini raqamlashtirishning ko'plab afzalliklari mavjud. Birinchidan, bu samaradorlikni oshiradi, chunki avtomatlashtirilgan tizimlar soliqlarni tez va aniq hisoblashga yordam beradi, to'lovlar esa oson va qulay amalga oshiriladi. Bu vaqtni tejashga va inson xatolarini kamaytirishga imkon beradi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar soliq yig'implarining shaffofligini ta'minlaydi. Soliq to'lovchilar va davlat organlari jarayonlarni onlayn kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa davlat va fuqarolar o'rtasida ishonchni kuchaytiradi. Bu shuningdek, soliq qonunbuzarliklarini kamaytirishga yordam beradi.

Uchinchi afzallik, soliq to'lovlarini amalga oshirish jarayoni yanada soddalashadi. Soliq to'lovchilar onlayn to'lov tizimlaridan foydalanish imkoniga ega bo'lib, jarayonni qulayroq va osonroq qiladi. Raqamli tizimlar yordamida katta miqdordagi ma'lumotlar samarali tahlil qilinishi natijasida davlat soliq siyosatini rejalashtirishda aniq va o'z vaqtida qaror qabul qilish imkoniga ega bo'ladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar soliq tizimini xalqaro standartlarga moslashishga yordam beradi va bu xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga, shuningdek, transchegaraviy iqtisodiy aloqalarni yaxshilashga imkon beradi. Bu barcha afzalliklar soliq tizimining yanada samarador, shaffof va moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi.

Globalashuv sharoitida soliq tizimining xalqaro standartlarga mos kelishi muhim. Mamlakatlararo soliq hamkorligi soliqlardan qochishni kamaytirishga, xalqaro daromadlarni kuzatishga va soliq bazasini kengaytirishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, soliq tizimi bozor sharoitlari va iqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lishi kerak. Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar paydo bo'lganda, soliq siyosati ularga tez moslasha olishi lozim. Bu printsiplar soliq tizimining barqaror va samarali ishlashi uchun muhim bo'lib, ular mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'maklashadi.

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini modernizatsiya qilish jarayonida quyidagi natijalarga erishildi:

- Soliq jarayonlarining avtomatlashtirilishi va raqamlashtirilishi natijasida davlat daromadlari oshdi va soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini bajarish samaradorligi yaxshilandi.
- Raqamlashtirish orqali davlat va soliq to'lovchilar o'rtasida muloqot soddalashib, korrupsion holatlar va tizim faoliyati bo'yicha noaniqliklar soni keskin kamaydi.
- Soliq tizimining raqamli infratuzilmaga o'tishi nafaqat soliq to'lovchilarning, balki davlatning ham operatsion xarajatlarini kamaytirishga yordam berdi.
- 2024 yilning 1-apreldan boshlab tadbirkorlarga teng sharoitlar yaratish va QQS zanjirining yaxlitligi va uzluksizligini ta'minlash uchun QQS bo'yicha ba'zi imtiyozlar bekor qilindi.



Shuningdek, soliq stavkalarini optimallashtirish orqali tadbirkorlar uchun soliq yukini yengillashtirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Bu natijalar asosida kelgusida soliq tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari sifatida texnologik infratuzilmani yanada rivojlantirish, xalqaro tajribani chuqurroq o‘rganish va maqbul amaliyotlarni mamlakatimiz soliq tizimida qo‘llash maqsadga muvofiq sanaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borgan tahlillarimizdan kelib chiqib, quyidagi xulosa va takliflarni ishlab chiqdik:

- Soliq tizimini soddalashtirishdan tashqari, texnologiyalarni integratsiyalash soliq tizimini modernizatsiya qilishda asosiy rol o‘ynaydi.

- Sanoat inqilobi texnologiyalari an‘anaviy sohalarni tubdan o‘zgartirib, soliq tizimlarining dolzarbligi va samaradorligini saqlab qolish uchun ularga moslashishni talab qilmoqda.

- Soliq tizimiga oid islohotlarning texnologiya va ma‘lumotlarni boshqarishga qaratilishi kelgusida soliq idoralarning imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

- Soliq tizimini modernizatsiya qilish muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun uzluksiz takomillashtirish va moslashishga moyillikni talab qilinadi.

- Soliq islohotlarining muvaffaqiyatsizliklariga qarshi kurashish uchun kuzatuv mexanizmlarini va boshqaruv tizimlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq tizimi modernizatsiyasining kontseptual asoslarini takomillashtirish uchun sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, soliq stavkalarini yanada optimallashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, soliq tizimi shaffofligini oshirish hamda ijtimoiy adolatni ta‘minlash zaruriy shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni. 29.06.2018 yil. <https://lex.uz/docs/-3802378>

2. Gadoyev E.F. va boshqalar. Bilvosita soliqlar: qo‘shilgan qiymat solig‘i, aktsiz solig‘i. – T.: “Norma”, 2011. - 327 b.

3. To‘rayev Sh. “Xo‘jalik sub’ektlarining soliq yukini optimallashtirish masalalari”. Dis... avtoref. i.f.d. – T.: BMA, 2007. 21 b.

4. Yuldashev O.T. O‘zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo‘nalishlari. Dis... avtoref. i.f.n. - T.: 2011. 22 b.

5. Qurbanov Z.N. Soliq hisobi va auditing nazariy va metodologik asoslari. Dis. i.f.d. – T.: BMA, 2008. 272 b.

6. Sanaqulova B.R. Kichik tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash. Dis. i.f.d. – T.: 2016. 260 b.

7. Hotamov K.R. Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish. Dis. i.f.d. – T.: 2016. 136 b.

8. Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) dissertatsiyasi. – T.: 2018. 247 b.

9. Normurzayev U.X. “Soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish yo‘llari”. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. - T.: 2020. 127 bet.

10. Kurniawan, Taufik. (2018). Modernization of the Tax Administration System: A Theoretical Review of Improving Tax Capacity. doi: 10.1051/E3SCONF/20187310022

11. Shelvira, & Mortigor Afrizal Purba. (2024). The Analysis of Factors Affecting Tax Compliance Among MSMEs In Batam City. Al-Kharaj: Jurnal Ekonomi, Keuangan & Bisnis Syariah, 6(5), 4336–4352. <https://doi.org/10.47467/alkharaj.v6i5.1658>



12. Lui, K. H. (2024). Christian Economics: My Conversation with a Bot on the Biblical Perspective of 21st Century Economics. Phoenix Consulting.

13. <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/a30b745a-3fd7-53ea-8d78-ea9088350063/content>

14. Awasthi, R. and Bayraktar, N. (2015). Can tax simplification help lower tax corruption? Eurasian Economic Review, 5(2), 297-330. <https://doi.org/10.1007/s40822-015-0014-9>

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-154-son Farmoni.

16. <https://soliq.uz/other/open-committee-data>

17. <https://soliq.uz/page/interaktiv-xizmatlar-royxati>



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

| 2024 |

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93-718-40-07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz :Toshkent shahar,
Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

